



O'ZBEKISTONDAGI INFLATSIYA DARAJASI OSHISHI VA KAMAYISHI SABABLARI

Ermamatov Z.Z.

Menejment fakultetining

1-bosqich talabasi

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti

Anatatsiya: Ushbu maqolada inflyatsiya, inflyatsion targetlash, inflyatsiyaga qarshi tadbirlarni amalga oshirish, uzoq muddatli va qisqa muddatli siyosat yuritish va inflyatsiyaga oldini olish haqida keng qamrovli tadbirlar aks ettirilgan. Bu tadbirlar inflyatsiyani boshqarish va inflyatsion targetlarni erishishning muhim yo'llarini tashkil etadi. Inflyatsion targetlash sistemasining amalga oshirilishi mamlakatda narx barqarorligini ta'minlashga yordam beradi va moliyaviy barqarorlikni kuchaytiradi. Uzoq muddatli va qisqa muddatli siyosatlar inflyatsiya darajalarini belgilash va uni nazorat qilishda muhim asboblarni hisoblanadi. Bu tadbirlar inflyatsiyaga oldini olish, istiqbolli iqtisodiy o'sish va moliyaviy barqarorlikning sa'y-harakatlariga imkon yaratishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Istemol narxlar indeksi, Target, Markaziy bank, Shvetsariya, Venesuela, YIM, Talab inflyatsiyasi, Economics.

Biz ushbu maqolada O'zbekistonda inflyatsiya darajasining o'zgarish sabablarini ko'rib chiqishdan avval inflyatsiya nimaligini bilib olsak. Inflyatsiya¹⁸ bu mamlakatdagi yalpi tovar va xizmatlarni bahosini ko'payishidir. Inflyatsiya makroiqtisodning eng murakkab aspekti hisoblanadi, va uni tartibga solish juda katta iqtisodiy muamodir. Deflyatsiya esa inflatsiya davrida chiqarilgan ortiqcha pullarni kamaytirishdir. O'zbekistonda inflatsiya darajasi oshishining va kamayishining sabablari bir nechta faktorlarga bog'liq bo'lishi mumkin. Bu faktorlar quyidagilar :

¹⁸ Z.Yuldashev va M.Qosimov-"MAKROIQTISODIYOT ASOSLARI" 151 bet,11-bob 1994-yil



Moliyaviy politika: Hukumat tomonidan mablag'lar miqdorini va daromad olishini ta'sir qiladi. Agar mablag'lar miqdori kattaroq bo'lsa, ortiqcha mablag'lar ortiqcha talabni oshirishi mumkin va bu esa inflatsiya darajasini oshirishi mumkin.

1. Narxlar: Tovar va xizmatlar narxlari o'sishi, yani umumiy darajada narxlar oshirilishi, bu ham inflatsiya darajasini oshirishi mumkin.
2. O'zbekiston iqtisodiyotidagi tashqi faktorlar: Dunyo bozorida yuz beradigan o'zgarishlardan tasir qilishi mumkin. Masalan, xalqaro valyutalar o'zgarishi, dunyo bozoridagi tovar narxlari o'zgarishi, energiya narxlari o'zgarishi va boshqa mamlakatlardagi iqtisodiy holatlar inflatsiya darajasini oshirishi mumkin.
3. Tashqi iqtisodiyotda xavfsizlik va siyosiy faktorlar: Tashqi iqtisodiyotdagi xavfsizlik va siyosiy faktorlar ham inflatsiya darajasini oshirishi mumkin. Siyosiy qonunlar, davlatning iqtisodiyotdagi moliyaviy va siyosiy maslahatlar, davlatning kredit siyosati, davlat moliyaviy institutlari va boshqa faktorlar inflatsiya darajasini oshirishi yoki kamayishi mumkin.
4. Sifatli investitsiyalar: Sifatli investitsiyalar, ya'ni iqtisodiy sektorlarga kiradigan sarmoyalar, mamlakatning iqtisodiy taraqqiyotini oshirishi mumkin va inflatsiyani kamaytirishda muhim rol o'ynayadi.
5. Sotsial soxalar: Sotsial soxalar, ya'ni jamoatning sotsial bozorlarida o'tkaziladigan operatsiyalar, narxlarning o'sishi va inflatsiyani oshirishi mumkin.¹⁹

Har bir mamlakatning inflatsiya holati o'zining xususiyatlariga ega bo'ladi va hukumatlar inflatsiya darajasini nazorat qilish uchun moliyaviy politikalar va boshqa iqtisodiy vositalarni qo'llaydilar. Endi inflyatsiya so'zi bilan chambarchas bog'liq bo'lgan so'zlar manosini ko'rib chiqaylik. Iste'mol narxlari indeksi ²⁰ bu jamoat transportlari, oziq-ovqatlar va tibbiy yordam xizmati kabi mahsulot yoki xizmatlarning o'rtacha narxlarini ko'rsatadi. U oldindan belgilangan tovar savatidagi har bir buyum uchun narx o'zgarishini olish va ularni o'rtacha hisoblash yo'li bilan hisoblanadi. Tashqi harajatlar indeksi (CPI), ommaviy

¹⁹ Andrey Davydev – "Inflation in Economics" 89pg 1991-year

²⁰ <https://fayllar.org/istemol-narxlari-indeksi.html>



iste'mol uchun yetkazib beriladigan tovarlar va xizmatlar uchun narxlarning o'zgarishini o'rganish uchun ishlatiladigan statistik ko'rsatkichdir. Bu indeks, ommaviy harajatlarning umumiy darajadagi o'zgarishini ifodalaydi va moliyaviy politikani shakllantirish, inflatsiyani boshqarish va sotsial-iqtisodiy analizlarni amalga oshirish uchun muhim ma'lumotlar ta'minlaydi. Tashqi harajatlar indeksi, bir bazaviy yilda belgilangan bazaviy muddat (masalan, bir yil) bo'yicha harajatlarni o'zgarishini hisoblash uchun istifoda qilinadi. Indeksga kiradigan mahsulotlar va xizmatlar, odatda ommaviy harajatlar bo'linmasiga kiruvchi eng muhim tovarlar va xizmatlar ro'yxatida jamlanadi. Bu tartibda, ovqatlanish, transport, ish, mashina, yashash joyi, kommunikatsiyalar va boshqalar kabi harajatlar indeksga kiradigan asosiy bo'limlar sifatida kuzatiladi. CPI, belgilangan bazaviy yilga nisbatan, tovarlar va xizmatlarning narxlari o'zgarishini ko'rsatuvchi indeks raqamini beradi. Bu indeks raqami narxlar o'zgarishini ifodalaydi: agar CPI indeksi o'ssa, bu inflatsiya ko'rsatkichi deb hisoblanadi, ya'ni narxlarning o'sishiga ishora qiladi. Agar CPI indeksi kamaytirilsa, bu deflyatsiya, ya'ni narxlarning kamayishiga ishora qiladi²¹. Inflyatsiya darajasining pastligi narx barqarorligini bildiradi, bu esa, o'z navbatida, aholining turmush darajasiga ham, uning mehnat faoliyatiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Inflyatsiya mamlakat taraqqiyoti uchun eng muhim ko'rsatkichlaridan biridi hisoblanadi - u qancha past bo'lsa, shuncha yaxshi. Masalan, Shveysariyaga o'xshash rivojlangan davlatlarda yillik inflatsiya ko'rsatkichi 1.5 foizdan ko'tarilmaydi, shu bilan birga ²²Venesuela va Zimbabve kabi inqiroz botqog'iga botgan davlatlarda inflatsiya ko'rsatkichi 500 foizdan ortib ketgan. O'zbekistonda esa 2017-2022 yillar oralig'idagi o'rtacha inflatsiya ko'rsatkichi 12.88 foizni tashkil etgan. Bunga ko'ra 2017 yilda inflyatsiya darajasi 14,4 foizni, 2018 yil davomida inflyatsiya darajasi 14,3 foizni, 2019-yilda inflyatsiya darajasi 15,2 foizni, 2020 yilda inflyatsiya darajasi 11,1 foizni, 2021-yilda inflyatsiya darajasi 9,98 foizni, 2022-yilda inflyatsiya darajasi 12,3 foizni tashkil etdi. O'zbekistonda 2021-yildan boshlab inflyatsion targetlash sistemasiga o'tildi. Bu sistemaga ko'ra, Markaziy bank inflyatsiya bo'yicha yil ohiriga qadar maqsad (target) qo'yadi va unga erishish maqsadida barcha imkoniyatlar ishga

²¹ <https://fayllar.org/istemol-narxlari-indeksi.html>

²² <https://www.inflation.eu/en/inflation-rates/switzerland/historic-inflation/cpi-inflation-switzerland-2021.aspx>



solgan holda harakat qiladi. Markaziy bank 2021-yil uchun qo'ygan maqsadi 10 foiz bo'lgan bo'lsa, 2023 yil uchun esa inflatsiya ko'rsatkichini 5 foziga tushirish maqsad qilingan.²³ Ma'lumot o'rnida shuni aytish kerakki, 5 foizli inflyatsiya bu Kanada va Buyuk Britaniya kabi rivojlangan davlatlarga teng ko'rsatkich hisoblanandi. Hozrgi 21-asr texnologiyalar davrida inflatsion targetlash pul-kredit siyosatini to'g'ri olib borishning eng opyimal usuli bo'lib, ushbu usulni yer kurramizdagi 40 dan ortiq mamlakatlar qo'llamoqda. "Target" so'zi ingliz tilidan olingan bo'lib, "maqsad" degan ma'noni ifodalaydi. Inflyatsion targetlash sistemasida inflyatsiya maqsadi belgilangan ko'rsatkich yoki "target" bilan aniqlanadi. Inflyatsiya darajasini kamaytirishga yo'l qo'yishning maqsadi bo'yicha, pul-kredit siyosati mexanizmlari o'zaro bog'liq ravishda ishlayarak, inflyatsiya darajasini kamaytirishda samarali yo'l tanlanadi. Ushbu rejimning qo'llanilishi ustida amalga oshirilganlik, istiqbolli iqtisodiy o'sish va moliyaviy barqarorlikning sa'y-harakati uchun qo'shimcha sharoitlarni yaratish imkonini beradi. Bu rejim, Markaziy bankning inflyatsiya darajasining belgilangan maqsadini aniqlash, pul-kredit siyosati vositalarini qo'llash, iqtisodiy tahlilni tartibga solish va pul-kredit siyosati rejalarini kengaytirish orqali amalga oshiriladi. Narx barqarorligi, moliyaviy barqarorlikni ta'minlash maqsadida targetlash doirasida amalga oshiriladi, chunki mamlakatdagi umumiy holatlar sifatli va oldindan bashorat qilinadigan bo'ladi. Misol uchun, investorlar, tadbirkorlar va boshqalar qaror qabul qilishda ishonchli hissotlarga ega bo'ladi. Bu, moliyaviy tizimning umumiy barqarorligiga yordam beradi va Markaziy bankning rolini kuchaytiradi.

Inflyatsiyaga qarshi tadbirlarni amalga oshirish uchun uzun va qisqa muddatli siyosatlar birlikda qo'llanilishi tavsiya etiladi. Uzun muddatli siyosatlar, inflyatsiya darajasini uzun muddatda qisqartirish maqsadida boshqarishni o'z ichiga oladi. Bu, struktural reformalar, iste'molni chuqurlashtirish, sarmoya va innovatsiyalar rivojlantirish, istiqlollika va konkurensiyani oshirish va boshqa dolzarb masalalar bilan bog'liq keng qamrovli tadbirlardan iborat bo'lishi mumkin.

²³ <https://daryo.uz/202201/07/ozbekistonda-yillik-inflyatsiya-darajasi-keskin-pastladi-bu-nimani-a/nglatadi>



Qisqa muddatli siyosatlar esa inflyatsiyani tez va samarali ravishda tutish maqsadida qo'llaniladi. Bu, pul-siyosati instrumentlarining yorqin va samarali ishlatilishi orqali inflyatsiya darajasini boshqarishni o'z ichiga oladi. Misol uchun, pul mablag'larining talabini cheklangan holda moliyaviy siyosatni amalga oshirish, banknotlar miqdorini nazorat qilish, kredit siyosati va moliya politikasini tartibga solish kabi tadbirlar bu qisqa muddatli siyosatning bir qismi bo'lishi mumkin.

Uzun va qisqa muddatli siyosatlar bir xil holatda foydali bo'lishi mumkin, chunki ular inflyatsiyani boshqarishda o'zaro qo'llanilishlari bilan ta'minlaydi va o'zaro birligini oshiradi. Soliq tizimini takomillashtirish hamda davlatning xarajatlarini kamaytirish hisobiga byudjet taqchilligini qisqartirish choralarini ko'rish;

- Pul muomalasi sohasidagi tadbirlar, xususan pul massasi o'sishining eng yuqori ehtimoliy chegaralarini va har yilgi qat'iy chegaralarini belgilashga qaratish.

- Inflyatsiyani qisqartirish maqsadida, xususan hukumat byudjet taqchilligini moliyalashtirish uchun, chet eldan qisqa muddatli kreditlar va qarzlar olishdan foydalanish iqtisodiyotga inflyatsiyaning ta'sirini kamaytirishning bir yo'li bo'lib, shu kreditlar va qarzlarni milliy valyutaga konvertatsiya qilish va undan kelib chiqadigan qo'shimcha mablag'lar sonini kamaytirish bilan amalga oshiriladi.

- Jami talab oshmagan holda, iste'mol tovarlarini ko'plab miqdorda import qilish va korxonalarning aksiyalarini kata miqdordagi sotish orqali jami taklifni kengaytirish, tovarlar va xizmatlarni qo'shimcha ishlab chiqarishni rag'batlantirish maqsadida amalga oshiriladi.

- Sug'urtalash va jamg'arishni rag'batlantirish. Inflyatsiyaga qarshi siyosat munosabati bilan inflyatsiyaga qarshi kurashning xarajatlari masalasi keskin bo'lib turadi. Jamiyat manfaatlari nuqtai nazaridan olganda inflyatsiyaga qarshi kurash. Xalq xo'jaligida kattagina zarar ko'rishga, ya'ni ishsizlikning o'sishi va ishlab chiqarishning pasayishiga olib kelishi mumkin. Ayrim hisob-kitoblarga ko'ra, inflyatsiyani 1 foiz kamaytirish uchun ishsizlik yil davomida o'zining tabiiy darajasidan 2 foiz yuqori bo'lishi kerak, bunda real YaMM potentsial YaMM ga qaraganda 4 foiz kamayadi. Ko'pgina mamlakatlarning xukumatlari nazoratdan chiqib ketgan inflyatsiyani jilovlashga harakat qilib, narxlar va daromadlar siyosati deb atalgan siyosatni amalga oshirdilarki, uning asosiy vazifasi ish haqi o'sishini cheklashdan iborat bo'ladi.²⁴

²⁴ G'iyosiddin Abdullayevich Safarov va Zokirjon Olimjon o'g'li Bahodirov- "INFLYATSIYANING MAMLUKAT IQTISODIY XAVFSIZLIGIGA TA'SIRI VA UNI BARTARAF ETISH CHORA-TADBIRLARI"



Inflyatsiya ko'rsatkichini past darajada ta'minlash, makroiqtisodiy barqarorlik uchun muhim bir faktor hisoblanadi. Inflyatsiyaga ta'sir qiluvchi omillar va ularning dinamikasini o'rganish, prognozlashtirish va makroiqtisodiy tadqiqot institutlarining ekspertlari tomonidan amalga oshiriladi. O'zbekistonda inflyatsiyaga ta'sir qiluvchi asosiy omillardan biri, savdo hamkorligi qilingan mamlakatlardagi inflyatsiyadir. Import inflyatsiyasining oshishi, umumiy inflyatsiyaning taxminan 38% ni bildiradi. O'zbekistonda pul massasi, foiz stavkasi va YIM (yillik iste'mol narxlari) kabi talab omillarining inflyatsiyaga qo'shilgan hisssasi 29% ni tashkil etadi. Bu omillar narxga ta'sir qiladigan o'zgarishlarga olib keladi va mamlakatda iste'mol narxlari indeksining 33% ga o'sishiga olib keladi.²⁵

Mening mavzuyimni ko'pkigan sohalarga tasirini bilish maqsadida PESTEL usulida yozilmoqda.

Political: Mamlakatimizda barqaror va demokratik bozor iqtisodiyotini shakllantirish ko'p jabhalardagi ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni taqozo etmoqda. Jamiyatdagi yangilanish va o'zgarishlarning pirovard natijasi ko'p jihatdan fuqarolarning mazkur jarayonlardagi ongli va faol ishtirokiga, amalga oshirilayotgan islohotlarning mazmun-mohiyatini chuqur anglashga bog'liq bo'ladi. Iqtisodiyotni boshqarish uchun bir qancha siyosatlar mavjud. Misol uchun monetary siyosat. Monetar siyosat – bu davlatning pul-kredit siyosati bo'lib, pul muomalasini tartiblash, tovar va pul massasi o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash, iqtisodiyotdagi pul oqimlarini boshqarib turish siyosati hisoblanadi. Uning maqsadi narxlarni va shunga ko'ra milliy pul birligi xarid qurbini, uning valyuta kursini barqarorlashtirish, oxiroqibatda pulga talab bilan uning taklifini muvozanatlashtirishdan iborat bo'ladi. Monetar siyosat ikki xil boladi:

1) qattiq siyosat. Bunda pul massasi qisqartiriladi, uning emissiya (pul chiqarish) hisobidan o'sishi qat'iy chegaralanadi. Natijada pul massasi qisqarib, tovar massasiga tenglashadi. Pulning qisqarishi talabni kamaytiradi, narxlar esa o'smaydi, pul birligining xarid qurbi barqarorlashadi. Pul topishga intilish iqtisodiyotning jonlanishiga olib keladi. Bunday siyosat ilgari ta'kidlaganimizdek, odatda iqtisodiyotni tanglikdan chiqarish yoki inflyatsiyani keskin susaytirish uchun qo'llaniladi;

2) yumshoq monetar siyosat. Bunda davlat pul massasining ortishiga to'sqinlik qilmaydi, pul emissiyasi hadeb cheklanavermaydi, natijada pul ko'payib, uning arzonlashuvi yuz beradi. Yumshoq siyosat iqtisodiyot o'sish pallada bo'lganda ko'proq qo'llaniladi, 11 chunki pul massasining o'sishiga qarab tovarlar massasi ham o'sadi. Bunda tovar-pul

²⁵ <https://www.spot.uz/oz/2022/07/08/inflation/>



muvozanati pulni qisqartirish hisobidan emas, balki tovarlarning ko'payishi tufayli ta'minlanib turadi.²⁶

Economics: Inflyatsaning ikki ko'rinishi mavjud: talab inflyatsiyasi (iste'molchilar inflyatsiyasi) va sarf xarajatlar inflyatsiyasi (sotuvchilar inflyatsiyasi). Birinchisi iste'molchilar pul vositalarining ortiqchaligini bildirsa, ikkinchisi ishlab chiqarish sarf xarajatlarning oshishini bildiradi.

Talab inflyatsiyasi – bu iqtisodiyotda yalpi talabning keskin oshib ketishi va uni ishlab chiqarishining real hajmi bilan qondirish mumkin bo'lmay qolishi. Ortiqcha talab narxlarning oshib ketishiga sabab bo'ladi. Narxlar oshganda foydaning oshirishiga imkon tug'iladi. Ishlab chiqaruvchilar ishlab chiqarishni kengaytirib, qo'shimcha ishchi kuchi yollashadi. Ishsizlik darajasi pasayadi va buning oqibatida ish haqi oshadi, lekin, kelajakda talabning yanada oshishiga va narxlarining ko'tarilishiga olib keladi.

Sarf xarajatlar inflyatsiyasi - bu yerda ikki xil dastlabki holat bo'lishi mumkin: ish haqi oshishi yoki xom ashy ova yoqilg'ining qimmatlashishi natijasida sarf xarajatlar oshib boradi.²⁷

Social: : Iqtisodiyot o'z rivojlanish davriga yaqnlashgan sari yoki bandlik darajasini oshirish yoki inflyatsiyani pasaytirish kabi muqobil variantdan birini tanlashga majbur bo'ladi. Chunki ishsizlik va inflyatsiya o'rtasida teskaribog'liqlik mavjud. Ishsizlikni pasaytirish uchun qo'shimcha bo'sh ish o'rinlarini yaratatish qo'shimcha mablag' demakdir va bu narsa ish haqqining oshishiga ham olib keladi. Ikkala holat ham narxlarning ko'tarilishiga sabab bo'ladi yani talab inflyatsiyasi ro'y beradi va inflatsiya ijtimoiy hayotga quyidagi ta'sirni ko'rsatishi mumkin:

1. Sotib olish kuchi kamayishi: Inflatsiya bilan birga sotib olish kuchi ham kamayishi mumkin. Bu esa odamlarning sotib olish imkoniyatlarini cheklash va iste'molchilar uchun qiyinliklarga olib kelishi mumkin.

2. To'lovlar va pensiyalar: Inflatsiya bilan birga to'lovlar va pensiyalar ham o'sishi mumkin. Bu esa odamlarning sotib olish kuchini kamaytirishi va o'zaro qarzlarini oshirishi mumkin.

3. Investitsiyalar va iqtisodiy rivojlanish: Inflatsiya iqtisodiy rivojlanishga ta'sir qilishi mumkin. Agar inflatsiya yuqori bo'lsa, investitsiyalar kamayishi va iqtisodiy rivojlanishni to'xtatishi mumkin.

²⁶ U.V.G'AFUROV, M.SH.XALILOV, SH.BAYMURADOV – ” DAVLA IQTISODIYOTI VA SIYOSATI” 10-11-betlar 2021-yil

²⁷ R.A. Djurayeva, L.M. Tashpulotova- “MAKROIQTISODIYOT” 39-40-betlar



Technology: Inflatsiya va texnologik rivojlanish o'rtasidagi bog'lanishlar mavjud. Texnologik rivojlanish, ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va effektivlikni oshirish orqali mahsulotlar narxlarini pastaytirishi mumkin. Bu esa inflatsiyani tasiri bilan bog'liq bo'ladi. Agar texnologik rivojlanish mahsulotlar narxлари oshirishini oldini olishga yordam beradigan qulayliklarni olib keladigan holda bo'lsa, inflatsiya darajasi pastayadi. Texnologik rivojlanish, ishlab chiqarishning avtomatlashtirilishi va effektivlikni oshirish orqali ishchi kuchini ham ta'sir etadi. Bu esa ishchi kuchining o'sishi va ishsizlik darajasining pastaytirishi bilan bog'liq bo'ladi. Agar texnologik rivojlanish ishchi kuchini oshirishga yordam beradigan yangi sohalar yaratish va ish bilan ta'minlovchi xizmatlarni rivojlantirish imkonini beradigan holda bo'lsa, ishsizlik darajasi pastayadi. Inflatsiyani texnologiyalarga ta'siri, iqtisodiyotning umumiy holatiga va mamlakatning iqtisodiy rivojlanishiga bog'liq bo'ladi. Texnologik rivojlanish, ishlab chiqarishning avtomatlashtirilishi, effektivlik va produktivlikni oshirish, yangi sohalar yaratish va ishchi kuchini oshirish imkonini beradi. Bu esa inflatsiyani tasiri bilan bog'liq bo'ladi, chunki texnologik rivojlanish mahsulotlar narxлари va ishsizlik darajasini o'zgartirishi mumkin.

Environment: Inflatsiya, umumiy narxlarning o'sishi va pul miqdorining oshishi natijasida yuzaga keladigan bir iqtisodiy fenomendir. Bu inflatsiya jarayoni tabiatga ham ta'sir etishi mumkin. Inflatsiyaning tabiatga ta'siri quyidagi ko'rinishlarda bo'lishi mumkin:

1. Energiya narxlari: Inflatsiya bilan birga energiya narxlari ham o'sishi mumkin. Energiya resurslarining narxlari o'sishi, transport, ishlab chiqarish va boshqa sohalarda ishlov beruvchilar uchun katta muammo bo'lishi mumkin.
2. Qishloq xo'jaligi: Inflatsiya, qishloq xo'jaligini ham ta'sir etishi mumkin. Qishloq xo'jaligi, mahsulotlar narxlari va ishchi kuchining o'sishi bilan bog'liqdir. Agar inflatsiya yuqori bo'lsa, qishloq xo'jaligi mahsulotlar narxlari o'sishi bilan bog'liq bo'lib, bu esa qishloq xo'jaligining darajasini pastaytirishi mumkin.
3. Suvarish va suv resurslari: Inflatsiya, suvarish sohasini ham ta'sir etishi mumkin. Suvarish sohasida ishlov beruvchilar uchun kerakli resurslar va materiallar narxlari o'sishi inflatsiya bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Bu esa suvarish sohasidagi faoliyatni cheklash va suv resurslarining qondirilishi bilan bog'liq muammo yaratishi mumkin.
4. Tabiiy resurslar: Inflatsiya, tabiiy resurslar narxlari bilan ham bog'liq bo'lishi mumkin. Tabiiy resurslar, energiya, suv, oqim va boshqa resurslar narxlari inflatsiya bilan o'sishi mumkin. Bu esa tabiiy resurslardan foydalanuvchilar uchun qiyinliklarga olib kelishi va tabiiy resurslarning qondirilishi bilan bog'liq muammo yaratishi mumkin. Inflatsiya tabiatga ta'siri, iqtisodiyotning umumiy holatiga va tabiiy resurslarning foydalanishiga bog'liq bo'lishi mumkin. Energia, qishloq xo'jaligi, suvarish va tabiiy resurslar inflatsiya bilan o'sishiga bog'liq bo'lib, bu esa tabiat va tabiiy resurslarning qondirilishi va foydalanishida muammo yaratishi mumkin. Bu sababli inflatsiyani tabiatga ta'sirini nazorat qilish va to'g'ri siyosatlar bilan harakat qilish muhimdir.




Low: Qonunchilik iqtisodiyotning huquqiy asoslarini belgilab beradi, bular esa bozor iqtisodiyotining obyektiv iqtisodiy qonunlari talabidan kelib chiqishi zarur. Iqtisodiyotga oid yuridik qonunlarni parlament qabul qiladi. Hukumat esa ularning amalga oshirilishini ta'minlaydigan qarorlar va farmoyishlarni ishlab chiqadi. Tegishli davlat idoralari qonunlarning amalga oshirilishini nazoratga oladi.²⁸

Jamiyat orasida iqtisodiyot sohasiga yaqin bo'lgan 200 kishi tanlab olindi va ular orasida inflyatsiya bo'yicha so'rovnoma tashkil etildi. So'rovnoma maqsadi odamlar orasida inflyatsiya bo'yicha fikrlarini o'rganish edi. So'rovnomaning asosiy savollari quyidagilardan tashkil etadi.

1. O'zbekistonda inflyatsiya yetarli darajada pas deb xisoblaysizmi?
2. O'zbekistonda ishsizlik darajasi pas deb xisoblaysizmi?
3. Sizningcha shaharda inflyatsiya yuqori bo'ladimi yoki viloyatlarda?
4. Inflyatsiya darajasi oshishining salbiy haqida bilasizmi?
5. YIM darajasi inflyatsiya bog'liq deb xisoblaysizmi?

Jamiyat orasida tanlab olingan shaxslar tomonida to'ldirilgan so'rovnoma natijalariga ko'ra 1-savolimiz bo'lmish O'zbekistonda yetarli darajada pas deb xisoblaysizmi degan savolimizga asoslanib quyidagi diagramma ishlab chiqildi:



“O'zbekistonda ishsizlik darajasi pas deb xisoblaysizmi?” ushbu 2-savolimiz natijalariga ko'ra 45,45% odamlar ushbu savolga “Ha” deb javob berdilar. 50% insonlar esa bu savolga “Yo'q” degan javobni berdilar. 4,55% insonlar esa betaraf yani “Bilmayman” degan javobni

²⁸ U.V.G'AFUROV, M.SH.XALILOV, SH.BAYMURADOV - DAVLAT IQTISODIYOTI VA SIYOSATI 8-bet



berdilar. Bandlik Vaziri Behzod Musayev takidlashicha, mamlakatimizda mehnatga layoqatli aholining 1,3 mln nafari ishsiz²⁹. Spot.uz saytinining bergan ma'lumotlariga ko'ra 2023 yil O'zbekistonda ishsizlik darajasi 8,9% ga, qashshoqlik darajasi esa 14,1% ga tushirilgan.³⁰ So'rovnomamizning muhim savolaridan bir bo'lmish "Sizningcha poytaxtda inflyatsiya yuqori bo'ladimi yoki viloyatlarda?" degan savolimiz natijalariga ko'ra 68,18% odamlar poytaxtda deya javob berganlar, 18,18 foiz insonlar viloyatlarda deya o'z javoblarini berganlar. 13,64% insonlar esa bu mavzu haqida bilmasliglarini aytganlar. Gazeta.uz bergan ma'lumotlariga ko'ra Toshkent inflyatsiya kutilmalari bo'yicha eng pessimistik hudud bo'ldi. Poytaxtdagi respondentlar inflyatsiya 16,8 foiz bo'lishini (+0,6 foiz) kutmoqda. Narxlarining yuqori tempda o'sishi Buxoro viloyatida — 14,9 foiz (+1 foiz) va Qashqadaryo viloyatida — 14 foiz (+0,3 foiz) ham kutilmoqda. Eng optimistik kutilmalar Qoraqalpog'istonda qayd etilgan — 10,9 foiz (-0,4 foiz).³¹ "Inflyatsiya darajasi oshishining salbiy tomonlari haqida bilasizmi?" so'rovnomamizdagi ushbu savolga insonlar quyidagicha javob berdilar: 54,55% insonlar "ha" deb javob berdilar, 40,91% fozi esa inflyatsining salbiy tomonlari haqida bilishmas ekan. 4,55% insonlar esa ushbu mavzu haqida ma'lumotga ega emasligini aytdilar Inflyatsiya iqtisodiyotga katta ta'sir qilishi mumkin. Inflyatsiya sharoitida:

1. Birinchi qatorlarda pul birligi qiymati pastga tushiriladi;
2. Tovarlardagi narxlar o'zaro munosiblikni yo'qotdi.
3. Xaridorlar va sotuvchilar ushbu qarorni qabul qilishda ikkilanish ko'radilar.;
4. Katta investitsiyalar qilish xavf-xatarining oshishiga sabab bo'ladi;
5. Tadbirkorlar qisqa muddatli qarorlar va harakatlar bilan cheklanishga duch kelishadi;
6. Shaxsiy jamg'armalar o'z qadrlarini yo'qotishadi;
7. Aktsiyalar, obligatsiyalar, cheklar, veksellar, sertifikatlar, sug'urta
8. Polislarning haqiqiy qiymati pastga tushadi.
9. Kam ta'minlangan aholi ko'proq qashshoqlanishga olib keladi;
10. Mehnat qilish va tadbirkorlikning rivojlanishiga bog'liq ravishda ish haqi tezroq o'sish mumkin.

Xulosa qiladigan bo'lsak, inflyatsiya bozor jarayonini tartibsizlantirib, ham ishlab chiqarishni ham iste'molni izdan chiqaradi, aholining turmush darajasini keskin pasaytiradi, jamiyatda sotsial tanglikni vujudga keltiradi³². So'rovnomadagi ohirgi savoli bo'lmish "YIM darajasi inflyatsiya bog'liq deb xisoblaysizmi?" degan savolimizga aholi shunday

²⁹ <https://www.gazeta.uz/oz/2023/02/23/unemployed/>

³⁰ <https://www.spot.uz/oz/2023/02/22/unemployed-population/>

³¹ <https://www.gazeta.uz/oz/2023/07/13/inflation-expectations/>

³² <https://ares.uz/storage/app/uploads/public/639/836/ea6/639836ea661da172076081.pdf>



javob berdi: 45,45% insonlar “ha” degan 22,73% insonlar esa “yo’q” degan javobni berganlar. 31,82% insonlar esa ushbu mavzu haqida ma’lumotga ega emasligini takidlashdi.

Inflyatsiyaning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari quyidagilardan iborat:

1. Ishlab chiqarish hajmi kamayib bormoqda, chunki tebranishlar va narxlarning ko'tarilishi ishlab chiqarishni rivojlantirish istiqbollarini noaniq qiladi;
2. Kapitalning ishlab chiqarishdan savdo va vositachilik operatsiyalariga oqimi mavjud bo'lib, kapital aylanmasi tezroq va ko'proq foyda keltiradi, shuningdek soliqqa tortishdan qochish osonroq;
3. Narxlarning keskin va notekis o'zgarishi natijasida chayqovchilik kengaymoqda;
4. Kredit munosabatlari cheklangan, chunki hech kim qarzga ishonmaydi;
5. Davlatning moliyaviy resurslari eskiradi. Inflyatsiyaning asosiy salbiy ijtimoiy oqibati, agar daromad indekslanmagan bo'lsa va narxlar indeksini hisobga olmasdan kreditlar berilsa, boylik va daromadlarning qayta taqsimlanishi hisoblanadi. YIM va shaxsiy daromadlarni qayta taqsimlash turli yo'nalishlarda amalga oshiriladi.

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, O'zbekistonning iqtisodiyoti oxir-oxiriga rivojlansa ham, inflatsiya mamlakatning iqtisodiyotida bir mavzu sifatida turibdi. Inflatsiya, umumiy sifatda mahsulot va xizmatlarning narxlari umumiy darajada yuksalishi va pulning sotib olish kuchi kamayishiga olib keladigan vaqtinchalik fenomen hisoblanadi. O'zbekistonning inflatsiya darajasi o'zgarish ko'rsatishi va o'zining ta'sirini o'rganish bo'yicha katta ahamiyatga ega. O'zbekistonda inflatsiya, umumiy darajada to'g'ridan-to'g'ri narxlarning o'sishiga olib keladi. Bu esa pulning sifatini va harajatlarning o'sishini ta'sir qiladi. Inflatsiya odatda yillik darajada ifodalangan va "foiz" deb ifodalangan. Inflatsiya har qanday davlat uchun xavfli hisoblanadi. Hatto iqtisodiyoti rivojlangan davlatlar xam og'ir ahvolga tushib qoladi, shu sababli davlatlar undan qochishga va undan qutilish uchun harqanday chora chora tadbirlarni qo'llashga harakat qilishadi. Xususan, yurtimizda ham mustaqillik yillarida inflatsiya eng yuqori cho'qiga chiqdi lekin o'z vatida ko'rilgan chora tadbirlar natijasida inflyatsiya pasayishiga erishildi. O'zbekistonda inflyatsiya darajasi ko'payish yoki pasayish shakllarida bo'lishi mumkin. Agar inflyatsiya darajasi ko'payganda, bu odatda narxlarning oshishi va pulning sotib olish kuchini kamaytirishi bilan bog'liq bo'ladi. Bu esa o'zbekistonlik mijozlar uchun sotib olishni qiyinlashtirishi va harajatlarning oshishi bilan natijalanishida iqtisodiy qiyinchiliklarni olib kelishi mumkin. Inflyatsiya darajasi pasayganda esa, umumiy mahsulot va xizmatlar narxlari kamayishi bilan bog'liq bo'ladi. Bu esa mijozlar uchun sotib olishni osonlashtirishi va harajatlarning pasayishi bilan natijalanishida o'zbekistonning iqtisodiy holatini kuchaytirishi mumkin. O'zbekistondagi inflyatsiya xavfsizligi va iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash uchun O'zbekiston Hukumati va ilgari tashkilotlar, inflyatsiya darajasini monitor qilish, moliyaviy



siyosatlar orqali tadbirlar olib borish, investitsiya sifatini oshirish va mamlakatning iqtisodiy ko'rsatkichlarini yaxshilashga intilishlar amalga oshirishadi. O'zbekistondagi inflatsiya darajasi ko'pgina sohalarga tasirini o'rganish uchun PESTEL tahlili boyicha yozib chiqildi va tahlilga ko'ra asosan siyosatga va texnologiyalar uchun judayam katta ta'sir ko'rsatishni o'rganib chiqildi. Bundan tashqari, aholi orasida so'rovnoma o'tkazilib 200 ta insonni fikri o'rganib chiqildi va so'rovnomadan kelib chiqsak, aholi orasida inflatsiya tushunchasini keng tarqatish kerak, sababi savolarimizga 8% aholi "Bilmayman" javobini berdi va bu ko'rsatkich yetarli darajada pas emas. Lekin, joriy yillarda O'zbekiston hukumati inflatsiya bilan kurashish uchun qo'shimcha chora-tadbirlarni o'z ichiga olganligini anglatmoq kerak. Mamlakatda kuchli moliyaviy siyosat, soliq imtiyozlari, pul siyosati va to'lov tizimini yaxshilash kabi ko'plab chora-tadbirlar amalga oshirildi. Bu chora-tadbirlar inflatsiya darajalarini pastga olib tashlashga yordam berdi va mamlakat iqtisodiyotida barqarorlikni oshirdi. Shunday qilib, O'zbekistondagi inflatsiya mavzusida ko'plab sabablarga ega bo'lsa ham, hukumat katta e'tibor berayotgan va bu muammolarni hal qilish uchun yo'l harakat qilayotgan. Inflatsiya bilan kurashish uchun to'g'ridan-to'g'ri chora-tadbirlarni amalga oshirish va iqtisodiyotni barqaror qilishga intilish, mamlakatning mustahkam va sodda iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlashda katta ahamiyatga ega. O'zbekistonda bozor iqtisodiyotiga davlat aralashgani sababli inflatsiyani o'rta darajada ushlab turish mumkin va bu narsani kengaytirishni maslahat beraman.

Foydalangan adabiyotlar va saytlar

Foydalangan ilmiy adabiyotlar,

1. Z.Yuldashev va M.Qosimov-"MAKROIQTISODIYOT ASOSLARI"
2. G'iyosiddin Abdullayevich Safarov va Zokirjon Olimjon o'g'li Bahodirov- "INFLYATSIYANING MAMLAKAT IQTISODIY XAVFSIZLIGIGA TA'SIRI VA UNI BARTARAF ETISH CHORA-TADBIRLARI"
3. U.V.G'AFUROV, M.SH.XALILOV, SH.BAYMURADOV – " DAVLA IQTISODIYOTI VA SIYOSATI"
4. Makkonel Brue-Makroiatisodiyot boyicha qollanma
5. JO'RAYEV TOSHBOLTA TO'XTAYEVICH-Iqtisodiyot nazariyasi

Foydalanilgan saytlar,

6. <https://cbu.uz/uz/>
7. <https://www.spot.uz/ru/>
8. <https://daryo.uz/>
9. <https://www.gazeta.uz/>
10. <https://uzreport.news/>
11. <https://kun.uz/uz/>



12. <https://stat.uz>
13. <https://www.inflation.eu/>
14. <https://www.reuters.com/>
15. <https://ares.uz/storage/app/uploads/public/639/836/ea6/639836ea661da172076081.pdf>
16. <https://www.gazeta.uz/>
17. <https://www.spot.uz/>

